

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QARINDOSHLIK ATAMALARINING QIYOSIY TAHLILI

To‘htasinova Fotimaxon Ravshanbek qizi

O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti,
Lingvistika yo‘nalishi, 2- kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi qarindoshlik terminlari orasidagi o‘xshash va farqli jihatlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, jamiyat, ota-ona, qarindoshlik, farzandlar, urug‘chilik, urf-odat, madaniyat

ABSTRACT

This article analyzes the similarities and differences between kinship terms in English and Uzbek from the linguistic point of view

Keywords: family, society, parents, relative, children, custom, tradition.

Bilamizki, oila jamiyatning eng muhim va ajiralmas bir bo‘g‘ini bo‘lib, u shaxsning rivojlanishi, kamol topishi va ma’naviy jihatdan tarbiya topishda eng asosiy vazifani bajaradi. Shuningdek oila jamiyatning taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda rivojlanib boradi.

Tarixdan ma’lumki, eng dastlabki davrlardan ya’ni ibtidoiy davrlardan, urug‘chilik shakllangan va bora-bora bu urug‘ katta bir oilani tashkil etgan. Har bir shaxs oilaga shu darajada muhtojki, insondagi har bir qadriyat, dunyoqarash oila ichida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Oila tushunchasi har bir millat va elatni etnik rivojlanishida muhim o‘rin tutgan va uni eng zaruriy kichik bir bo‘g‘in deb hisoblashadi. Lekin shuni ham tan olish kerakki, oila tushunchasiga bo‘lgan qarashlar barcha xalqlarda turfadir. Ayniqsa oiladagi qadriyatlar, urf odatlar va oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar bir xil emas. Chunki bu masala har bir xalqning milliy madaniyatiga va etnik tarkib topishiga bog‘liqdir. O‘z- o‘zidan bunday qarashlar tilda o‘z ifodasini topdi.

O‘zbeklar oila tushunchasini inglizlarga nisbatan kengroq ma’noda tushunadi va qarindosh-urug‘chilik masalalariga chuqur e’tibor beradi. Chunki bizda urf-odat, madaniy aloqalar juda ham kuchli. Ammo inglizlarda esa oila har bir shaxs voyaga yetadigan va o‘z haq-huquqlaridan erkin foydalanadigan qarindoshlar tuzilmasi sifatida qarashadi.

Ikki tilda ham qarindoshlik atamalariga keladigan bo'lsak, ma'noviy o'xshash terminlarni uchratishimiz mumkin. Lekin yuqorida ta'kidlab o'tganimdek, o'zbek tilida bunday atamalar ko'proq va kengroq ma'noda tushuniladi. Masalan, o'zbeklarda katta oilalar (qaynona-qaynota, er- xotin, farzandlar) odatiy hol hisoblanadi. Ammo, inglizlarda bunday turdagi oilalar "extended family" deyiladi va juda kam kuzatiladi. Ularda asosan "nuclear family" (kichik oila ya'ni er-xotin, farzandlardan tashkil topgan) oilalar keng tarqalgan.

Atamalarga birma-bir to'xtaladigan bo'lsak, O'zbek tilida: Ota (dada)- oilaning asosiy boshqaruvchisi va ta'minlovchisi. Ona (shevada- oyi, aya)- oilaning asosiy bo'g'ini bo'lib, asosan farzand tarbiyasi bilan shug'illanuvchi inson.

Ingliz tilida esa: "Father" (daddy, dad) – deyarli o'zbek tilida qanday o'rin va vazifada kelsa, ingliz tilida ham shunday vazifani bajaradi. "Mother" (mommy, mom) – eri bilan teng huquqga ega bo'lgan oila vakili. "Daughter" – qiz, "Son"- O'gil bu terminlar ikki tilda ham bir xil ma'noda keladi. "Grandmother" – buvi,

"Grandfather" – bobo terminlari ham har ikki tilda bir xildir. Lekin ba'zi bir o'rinlarda farqli jihatlarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan, o'zbek tilida aka va uka tushunchalari alohida –alohida leksemalar bilan ifodalanadi. Lekin Ingliz tilida "Brother" – aka-uka so'zlari uchun bir xil. Bularni farqlash uchun "brother" so'zi yoniga "elder – katta", "little- kichkina" so'zlari qo'shib aytish orqali ular aka va uka so'zlarini farqay olishadi.

O'zbek tilida er yoki xotinning ota- onasi, aka-ukalarini aytishda "qayn" leksemasi qo'shib aytiladi va bu er yoki xotinning oila a'zolari ekanligini bildiradi. Masalan, qanona, qaynota, qaynisingil, qaynaka va hokozo. Ingliz tilida ham huddi shunday vaziyatni ko'rishimiz mumkin. Lekin farqli jihati shundaki, "in-law" leksemasi so'z boshiga emas balki oxiriga qo'shiladi. Masalan, mother-in-law, father-in-law. Bu vaziyatda shuni ko'rsak bo'ladiki, o'zbeklarda qaynona yoki qaynotani aytganimizda "qayn" leksemasi birinchi qo'shilyapti va bu qaynona yoki qaynotasini baribir o'z yaqinidek ko'rmasligi va orada masofa borligini anglatadi. Lekin inglizlarda buni aksi va "in-law" leksemasi so'zning oxiriga qo'shilyapti va bu qaynona yoki qaynotani deyarli o'z ota-onasidek ko'rishini bildiriyapti.

O'zbek tilida "o'gay" degan tushuncha ham bor va bu so'z qarindoshlikni bildiruvchi so'zning oldiga qo'shiladi va bu inson haqiqiy oila a'zosi emasligini bildiradi. Masalan, o'gay ona, o'gay ota. Shuningdek, ingliz tilida ham xuddi shunday atamalar mavjud va "step" so'zi o'gay ma'nosida keladi. Masalan, stepmother-o'gay ona.

O'zbek tilida "amaki" (erning akasi yoki ukasi) va "tog'a" (xotinning akasi yoki ukasi) alohida leksemalar orqali ifodalanadi lekin ingliz tilida bu atamalarni bitta leksema ya'ni "uncle" orqali ifodalanadi. Kim haqida gap ketyotganligini farqlashimiz

uchun, matn kontekstidan foydalanamiz. Xuddi shu vaziyat “amma” (erning opasi yoki singlisi), “xola”(xotinning opasi yoki singlisi) ga ham tegishli va bu soʻzlar oʻzbek tilida alohida leksemalar orqali ifodalansada, ingliz tilida shu ikki soʻzning oʻrniga “Aunt” leksemasidan foydalaniladi. Bundan koʻrinadiki, oʻzbeklarda xolani ammadan yaqinroq qarindosh sifatida koʻrishadi shuning uchun ular alohida leksemalar orqali ifodalanyapti. Lekin inglizlarda xola bilan ammani deyarli bir xildek yaqin koʻradi va shuning uchun bitta soʻzdan foydalanyapti.

Oʻzbek tilida “vachcha” leksemasini qoʻshish orqali qarindoshlik terminlarini yasashimiz mumkin. Masalan, amnavachcha, togʻavachcha, xolavachcha. Ammo, ingliz tilida bunday terminlarni bitta soʻz ifodalaydi yaʼni “cousin”. Bu atamani ishlatayotganimizda qanday jins vakiliga ishlatishimizning farqi yoʻq yaʼni ikkala jins vakiliga ham mos kelaveradi. Lekin, ikki tilni qiyoslayotganimizda esa, yuqoridagi vaziyatning umuman teskarisi boʻlgan holatni ham koʻrishimiz mumkin. Masalan, oʻzbek tilida “jiyan” atamasi jins ajiratmaydi yaʼni ikki jins vakiliga ham birdek ishlatilaveradi. Ammo ingliz tilida esa, bu masalaga alohida eʼtibor qaratilgan yaʼni “nephew” – oʻgʻil bola jiyani, “niece” – qiz bola jiyani maʼnolarini bildiradi.

Shuningdek, oʻzbek tilida “kelin”, “kuyov” atamaları ham bor va xuddi shu soʻzlarni ingliz tilida “daughter in-law” – kelin, “son in-law” – kuyov atamaları ifodalaydi. Ammo oʻzbek tilida mavjud boʻlgan “quda” terminini ingliz tilida uchratmaymiz. Chunki oʻzbek yili madaniyatida quda- andachilik muhim oʻrinda turadi va ingliz tilida mavjud boʻlmagan juda koʻp terminlarni ingliz tilida uchratishimiz mumkin. Shundan ham bilsak boʻladiki, oʻzbek tili naqadar boy va serqirra til.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna “ Ingliz va oʻzbek tilidagi qarindoshlik haqidagi maqollarning qiyosiy tahlili” maqolasi
2. D. Sulaymonova “ Oilaviy muloqotdagi murojatning lingvomadaniy xususiyatlari”
3. G.S. Xolmurodova “ Qarindoshlik haqidagi maqollarning kognitiv tahlili”
4. A. Mirzayeva “ Qarindoshlik atamalarining lugʻatlarda berilishi”